
“Vatan tayanchi” ko’krak nishonlari o’z egalariga topshirildi

Farg’ona shahridagi 6, 9, 19, 22, 24 va 25-umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi “Vatan tayanchi” otryadi a’zolariga ko’krak nishonlar topshirish marosimi bo’lib o’tdi.

Tadbirda Farg’ona viloyat hokimligi, Farg’ona garnizonidagi harbiy qism xizmatchilari, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, O’zbekiston yoshlar ittifoqi Farg’ona viloyati Kengashi, Mudofaa ishlari bo’limi, Qurolli Kuchlar faxriylari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Har bir maktabdan 10-11-sinf o’quvchilaridan 10 nafardan jami 20 nafar bolalar maktablarda “Vatan tayanchi” otryadi a’zolicigiga qabul qilingan. Umumiy oltita maktabdan 120 nafar o’quvchilarga ushbu ko’krak nishonlar topshirildi.

Tantanali marosimda so’zga chiqqanlar otryad a’zolariga kelgusida o’z tengdoshlari orasida haqiqiy vatanparvar, yetakchi va tashkilotchi bo’lishi zarurligi hamda el-yurt manfaati yo’lida sadoqat bilan xizmat qilish har bir yosh avlodning Vatan oldidagi burchi ekanligini ta’kidlab o’tdilar.

2023-10-27 10:22:36